Elarslon



Elarslon

(?-1172 yil 17 mart)

(1156-1172)

Anushteginiylar sulolasidan bo‘lgan Xorazmshohlar davlati hukmdori. ***Otsiz*** xorazmshohning o‘g‘li. Elarslon avval, saljuqiylar sultoni ***Sanjar***ga itoat etishini bildirib, noma va sovg‘a-salomlar yuborgan. Sulton Sanjar Elarslonni xorazmshoh deb e’tirof qilgan. ***Sulton Sanjar*** vafotidan so‘ng saljuqiylar taxti uchun kurash avj olgan. 1163 yil Elarslon saljuqiylar amirlari ichida eng kuchlisi ***Muayyid Oy-Abo***ga qarshi Nishopurga yurish qilgan, shaharni uzoq vaqt qamal qilib ololmagan, sulh tuzib Xorazmga qaytgan. Elarslon qo‘shinlari Dehistonni egallagan. 1166 yil Elarslon yana Nishopurga qarshi otlangan. Bistom yaqinidagi jangda birlashgan saljuqlar va ***Otabek Eldegiz*** qo‘shini bilan Elarslon qo‘shini o‘rtasida jang bo‘lib o‘tgan. Har ikki taraf biron natijaga erishmagan. Ammo xorazmshoh qo‘shinlarning bir qismini Bayhaq va Sabzavor shaharlariga jo‘natib, ularni egallagan (1167 yil may). Elarslon Nishopurni zabt etgan. 1167 yil Xorazm qo‘shinlari Raydan o‘tib, Sova shahriga yaqinlashgan, sulton ***Arslonshoh*** va ***Otabek Eldegiz*** o‘g‘li ***Jahon Pahlavon*** yetakchiligidagi saljuq qo‘shinlari bilan jangga kirib, g‘alaba qilgan. So‘ngra Eron Ozarbayjoniga bostirib kirib, Abxor, Zanjon va Qazvinni egallagan. Elarslon, shuningdek, Movarounnahr voqealariga ham aralasha boshlagan.

Qoraxitoylar vassali Samarqand hokimi ***Jaloliddin Ali Chag‘rixon*** 1158 yil qarluqlarni tor-mor keltirgan. Qarluqlar yetakchisi ***Lochinbek*** bir qism qo‘shini bilan Xorazmga qochib borib, Elarslondan yordam so‘ragan. 1158 yil iyulda Elarslon katta qo‘shin bilan Samarqandga yurish qilgan. Zarafshon daryosining bo‘ylaridagi janglarda xorazmshoh zafar quchgan. 1171 yil qoraxitoylar qo‘shini Amudaryodan o‘tib, Xorazm sarhadlariga kirib kelganda Elarslon to‘g‘onlarni ochib, poytaxt yaqinidagi yo‘llarni suvga bostirishga farmon bergan. Qoraxitoylar xorazmshoh qo‘shinlarini yengib, amir ***Ayyorbek***ni asir olib Samarqandga qaytganlar. Xorazmshoh poytaxti Gurganjga qaytgan va xastalikdan vafot etgan.

2023-10-29 21:17:19